



REJISSURANING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI (BAHODIR YO'L DOSHEV MISOLIDA)

Anvarov Shohruh

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
Magistratura bo'limi Aktyorlik san'ati (Estrada
aktyorligi san'ati) mutaxassisligi 2-kurs talabasi*

Annotatsiya: ushbu maqolada rejissuraning o'ziga xos xususiyatlari haqida rejisyor Bahodir Yo'l doshevning ijodiy ishlari misolida so'z yuritiladi

Kalit so'zlar: tomosha, san'at, rejissura, sahna, tomoshabin, repitsiya.

Barchamiz bilganimizday tomoshaning mazmuni uning bosh mavzuiga bog'liq bo'ladi. Bosh mavzuni bosh rejissyor, ssenariy muallifi va u bilan hamkorlikda ishlaydigan jamoa tanlashadi. Uning mazmunini boyitish esa asosan bosh rejissyor zimmasida bo'ladi, ya'ni bu ibora boshqacha qilib aytganda "rejissyor tili" deb ataladi. Bundan shu narsa ma'lum bo'ladki, bosh rejissyor quyidagi tomosha bilan tomoshabinga sahna tilida so'zlaydi. Ommaviy tomosha san'ati qadimda ham buyuk faylasuflarni, shoirlarni, davlat arboblarini madaniy soha insonlarini o'ziga jalb qilib kelgan. Chunki ushbu tomoshalarni xalqning o'zi uyushtirib va tomoshabin ham aynan xalqning o'zi bo'lgan. Bunday bayramlar xalq tomonidan bosib o'tilgan yo'lni chuqur anglashga, qo'lga kiritilgan g'alabalardan ruhlanishga, ertangi kunga ishonch bilan qarashga yordam bergen. Ommaviy tomosha rejissyorligi san'atini o'ziga xos tajribaga ega rejisyor Bahodir Yo'l doshevning faoliyatini alohida aytib o'tish joiz.

Mazkur fikrdan kelib chiqib, Bahodir Yo'l doshev sahnalashtirgan ayrim tomoshalarni yodga olaylik. Dastavval 1994 yili buyuk munajjim, mutaffakir va davlat arbobi Mirzo Ulug'bek tavalludining 600 yilligi sharafiga uyuştirilgan tomosha bo'ldi. Tadbirning nafakat madaniy hayotimizda, shu bilan birga endigina tetapoya bo'layotgan mustaqil davlatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida ham muhim ahamiyat kasb etganini nazarda tutsak, tomoshani sahnalashtirish ma'suliyatli naqadar jiddiy bo'lganini tasavvur etish qiyin emas. Qolaversa, ulug' ajdodlarimiz orasida Mirzo Ulug'bek nomi va asarlari jahon ilm-fan ahliga boshqalardan ko'ra yaxshiroq ma'lum va mashhur edi. Ana shunday xolatda barchaga ma'kul bo'ladigan monumental maydon tomoshasini yaratish oson ish emas edi. B.Yo'l doshev G.Brim bilan birgalikda tomosha g'oyasi ustida ancha izlandilar. Yurtboshimizning tavsiyasi bilan tomosha uchun sahna – Registon maydoni belgilandi.



Bu tabiiy sahna har qanday tomosha muvaffaqiyatining dastlabki omilidir. Biroq, ana shu maydondan oqilona foydalanish, uni bor salobati va betakrorligi bilan ko'rsata olish oson emas edi. Rejissyor rassom bilan buning uddasidan chiqdi. Maydon uzra Movarounnahr davlatining ulug'vorligini anglatuvchi manzara jonlantirildi.

Sahnaga latofatli Saroy malikalari kirib keladi. Markazda murg'ak Ulug'bekni allalayotgan beshik paydo bo'ladi va sokin-sohir "alla" qo'shig'i taraladi. Qo'shiq katta izdixom va yig'lnarga chorlaguvchi xaybatli litavralar shovqinlariga ulanib ketadi. Sokin kuydan keyingi tantanavor ohanglar tomoshabin vujudini to'la qamrab oladi. Uni beixtiyor voqealar ishtirokchisiga aylantirib qo'yadi. Maydonga yangi tug'ilgan chaqaloq-nabirani muborakbod etgani bobo – Soxibqiron Amir Temur oq otda kirib keladi. U hali dubulg'asini ham yechmagan, katta bir muxorabadan zafar quchib kelmoqda. Sohibqiron nabirani qo'lga olib, bir muddat termuladi-da, beklarning begi, ulug'i bo'lsin deya chakaloqqa Ulug'bek ismini berib, manglayidan o'pib chiqib ketadi. Sho'x tarona-tantanalar yanada avjlanib davom etadi. Shu taxlit sahna ko'rinishlari almashinib, ommaviy xoreografik xarakatlar asnosida Ulug'bekning ilm olami, shoxlik shukuhi, xorijlik elchilar bilan muloqot-munosabatlari va nihoyat farzandi Abdulatif bilan bog'liq iztiroblari, fojeasi ko'rsatiladi. Bu sahnalar Maqsud Shayxzodaning "Mirzo Ulug'bek" tragediyasidan benazir san'atkori Shukur Burxonov ijrosidagi monologlar, Xurshid Davron qalamiga mansub Ubay Burxonov va Afzal Rafikov o'qigan matnlar jo'rligida tomoshabin qalbida hayajon va zavq, tafakkurida hayrat va ibrat uyg'otadi.

Bu fikrning yana bir isboti o'laroq, oradan ko'p vaqt o'tmay, ulug' ajdodimiz, soxibqiron Amir Temur ko'ragon tavalludining 660 yilliy sanasini nishonlash tantanalari bo'ldi. Bu bayramning ham asosiy tomoshasini Baxodir Yo'ldoshev sahnalashtirdi.

Amir Temur nomi bu zot xaqida ozmi-ko'pmi tasavvurga ega bo'lgan odam uchun ulug' saltanat, daxshatli jangu muxorabalar, osmonhpar lojuvard gumbazlar ila ajib sir va salobat kasb etgan yuksak me'moriy obidalar bilan uyg'un tushunchalarini hayolga keltiradi. Ayni shu munosabat bilan yana bir muloxaza xayolga keladi. Baxodir Yo'ldoshev bundan 15 yil mukaddam bir suxbatida "Xamlet-millat timsoli, ozodlik timsoli "Xamlet"ni qo'yadigan bo'lsam, millatimizning qaysi timsoli bu rolni ijro etishi mumkin?", deb aytgan edi, aniqrog'i o'z-o'ziga savol bergen edi. Biroq bu savolga javob yo'qligi uchun og'ir so'lish olib,



mavzuni boshqa yoqqa burgandi. Amir Temur siy whole into the research theory masalasida ham shunday savol oldida lol edi. Millat qahramonini millat timsoliga aylangan aktyor o‘ynashi kerak. Bir qarashi yoki imosi bilan kishini larzaga soladigan qudratga ega Obid Jalilovday buyuk aktyorlar o‘tib ketgan... albatta, bunday xolatda yagona chora-konkret qiyofani jonlashtirishdan imkon qadar qochish edi. U shunday yo‘l tutdi. Sohibqiron qiyofasini umumiyl ko‘rinishlarda xiyol jonlantirib, tomoshabinni xayoli tasavvurlarning to‘la saqlanib qolishiga erishdi...

Bahodir Yo‘ldoshev Amir Temur qiyofasini biror aktyorning ijrosida jonlashtirishdan ko‘ra, u haqdagi badiiy-xoreografik tomosha vositasida mustahkamlashga harakat qiladi. Sohibqiron siy whole into the research theory imkon qadar kam ko‘rsatishni nazarda tutib, uning betakror obrazini plastik ifoda yo‘sinida aks ettirishni asosiy maqsad qilib oladi. U xatto keyinroq “Xujra” degan bir spektakl qo‘ysamu unda xujradan soxibqironning chiqishini kutib, boshka ishtirokchilar o‘z suxbat va xatti-harakatlari bilan Amir Temur hamda uning davri deb atalgan ulug‘vor xodisaning moxiyatini ochib bersalar, qaxramonning jonli siy whole into the research theory umuman ko‘rinmasa, deb niyat qilgandi. Shu niyat to‘la bo‘lmasada, katta tomoshada bo‘y ko‘rsatdi. Bu bilan Amir Temur salobatini yanada yuksakroq tasavvur etish imkoniyati yaratildi deb yozadi olim Shuxrat Rizayev o‘z maqolasida.

1997-yildagi mamlakatimiz rahbarining tashabbusi bilan “Sharq taronalari” Xalqaro musiqa festivalini o‘tkazish yaxshi an’anaga aylanib qoldi. Xozirga qadar 7 marotaba shunday festival o‘tkazildi. 2 yilda bir marotaba o‘tkaziladigan bu musiqa bayramining ochilish marosimida ulug‘vor Registon maydonida teatrlashtirilgan katta ommaviy tomosha ko‘yish ham urf bo‘lib, uni sahnalashtirishga yetakchilik qilish mutassil Baxodir Yo‘ldoshev zimmasiga yuklanmoqda. Bu marosimlar shunchaki ochilish tantanalari emas. Xar safargi tomosha alohida, bir-birini takrorlamaydigan mustaqil maxobatli spektakllardir.

“Buyuk ipak yo‘li” qadim-qadimdan G‘arb-u Sharqni bir-biriga bog‘lagan, moddiy ne’matlar bilan bir qatorda ma’naviy boyish, yuksalish uchun ham o‘z davrida beqiyos xizmat qilgan xayot yo‘lidir. Uning ahamiyati va tarixini butun dunyo e’tirof etadi, o‘rganadi, ilmiy-amaliy anjumanlar, adabiy-badiiy tadbirilar o‘tkaziladi. Xullas, tomosha uchun bir dunyo manba va adoqsiz mavzular...

Baxodir Yo‘ldoshev mana shu manba va mavzularni bir tartibga solish, ijodiy tajribadan o‘tkazish maqsadida dastlab uning badiiy eskizini Abror Hidoyatov teatri sahnasida tayyorlab oladi. Eng muxim, bosh g‘oyani topadi: “Dunyo turfa rang va



mazmundan iborat yagona bir maskan. Insoniyat turli tillarda so‘zlashsada, turli aqida va odatlarga suyansada, orzu-umidlari mushtarak”.

Ana shu g‘oyaning inkishofi o‘laroq “Buyuk ipak yo‘li”da borayotgan karvonning shartli-majoziy obrazi jonlanib, u yo‘lda uchragan mamlakatlarga qo‘nib o‘tadi. Shu tariqa turli mamlakatlarning urf-odati, kiyim-bezaklar, kuy-qo‘shiqlari aks etgan alohida xoreografik lavhalar namoyish etib boriladi va oxir – oqibat yagona kompozitsion butunlik yuzaga keladi. Tomoshabin goh Ovrupa mayin-musiqiy ohanglari, goh “Karmen” operasi uchun yozilgan ehtirosli ispan kuylari shiddatida, goh hind setor talablari jaranglagan nafosat olamida, qozoq, tojik, turkman, koreys va Xitoy kuy sadolari yangragan dunyolarda to‘lqinlanib, sururlanib o‘tiradi. Ayniqsa, o‘zbek milliy kuy va raqslari “Shashmaqom”ning sokin va sehrli navolari taralgach, go‘yoki uzoq safardan so‘ng o‘z yurtiga kirib kelgan karvonning shodligi havolarni tutadi. Barchaning qalbiga, ongiga kuy va rang zavqi, xayotbaxsh falsafasi muxrlanadi. Tiriklikning, yashamokning naqadar ulug‘ ne’mat ekanligiga, dunyoning shunchalar inja va go‘zalligiga yuraklarda alyor yangraydi, xayratlar ummonida ruh yuksaladi. Shunday tuyg‘ularni bag‘ishlagan ijodkorlarga, san’atkorlarga ich-ichingizdan tasannolar aytasiz. Oradan 2 yil o‘tib, ana shu maydonda namoyish etilgan Shashmaqom minglab yillar bilan belgilanadigan qadim navolarimiz. Unda xalqning dardi, orzu-umidlari, tashvishlari, ilm-ma’rifati, urf-odati barchasi mujjasam. Eng muximi, uni tomoshabin-tinglovchi qalbi va ongiga yetkiza bilishda.

Rejissyor milliyligimiz va qadim yuksak madaniyatimiz ifodasi sifatida “Shashmaqom”ning bor jozibasi, mohiyat-mazmuni imkon qadar to‘laroq namoyon etish uchun jonli ijro usuluni tanlaydi. Minglab san’atkor va yordamchi texnik kuchlar jalb etilgan, ochiq osmon ostidagi maxobatli sahnada jonli ijro usulini qo‘llash katta jasorat va jur’at talab etadi. Ba’zi mutassadilarning e’tiroziga qaramay Baxodir Yo’ldoshev o‘z fikrida qattiq turib oladi. Abduxoshim Ismoilovning musiqiy iste’dodiga suyanib, “Shashmaqom” tartibi, ijro yo‘llari, ichki dinamikasi va ijrochilar imkoniyatlarini nazarda tutib, tomoshaning xar jihatdan mutanosib, yaxlit kompozitsiyasini shakllantiradi. Albatta, rejissyorlik ko‘rimi va u tuzgan mukammal konstruksiya ijrochilarning mahorati bilan uyg‘unlashib; to‘liq muvaffaqiyatga sazovor bo‘lishi mumkin. Shu ma’noda bu tomoshada ikki aka-uka bola xofizlarning tiniq navolaridan to aka-uka xalq xofizlari Isroiljon va Ismoiljon Vaxobovlarning doiraga usul berib, unga hamohang kuylab maydonga kirib kelishlarigacha, Soyibjon Niyozovning qalb torlarini chertguvchi “Dutorim”



qo'shig'idan to benazir sozanda Abduxoshim Ismoilovning gjakdagi "Cho'li-iroq" nolalarigacha, Toxirning Buxorocha o'ynoqi mavrigisidan tortib, nihoyat Matluba Dadaboyevaning "Samarqand ushshog'i"dagi betakror avj pardalarigacha jam bo'lib Bahodir Yo'ldoshev rejissurasida bag'oyat tabiiy uzviylik kasb etdi.

"Shoshmaqom" honishlarining o'rni bilan Xorazm maqomi va "Lazgi" siga qoraqalpoq qizlarining nozli o'yinlari, Boysun folklor qo'shiq va raqslariga omuxta etilishi tomoshabin ruhiyatining dardchil, tushkun xissiyotlardan nekbin tuyg'ularga ulanib ketishini ta'minlaydi. Raqqoslarning zavq-u shavqqa to'lib, maxobatli sahnani to'ldirib xirom etishlari yorug'lik va hayot tantanasining muqarrarligida mujda beradi. Bahodir aka ana shunday tomoshalarning mashq jarayonida bir fikrni aytgan edi; "Har qanday qovushimsiz narsaning yo ijroning joyini topib, o'z tabiiy tartibida ko'rsata bilsang, uni odamlar qabul qiladi, kerakli, yoqimli narsaga aylanadi. Bu maydon tomoshalari rejissurasining eng asosiy xususiyatlaridan".¹

Darhaqiqat, uyg'unlikda gap ko'p. "Shoshmaqom" maydon spektaklining yakunida yana bir mezansaxna namoyish etildi. Sahnaning tomoshabinga yaqin yon tomonlarida turli milliy hunarmandchilik dov-dastgohlari o'rnatilib, ular shunchaki dekoratsiya emas, balki o'z vazifasiga ko'ra harakatga solingan ashyo-uskunalar edi. Qatorda bir qancha tandirlar ham qurilgan bo'lib, tomosha boshlanishida ularga rosmana nonlar yopilib, nihoyasida tandirdan issiq-issiq o'zib, tomoshabin mehmonlarga patnisu likopchalarda qand-kurs, pista-bodom, pashmak-parvarda, mag'izu turshak tortiq etildi. Bu o'sha Bahodir aka nazarda tutgan uyg'unlikning mumtoz namunasi edi...

Bir munosabat bilan Baxodir akaga nima uchun so'nggi yillarda bevosita teatrda spektakllar sahnalashtirishga kam e'tibor beryapsiz deb so'ralganda, u kishining javobi shunday bo'ldi:

"Teatr o'zi yashayotgan davr xususiyatlariga ko'ra o'zgarib turishi tabiiy hol. Muhimi halq uchun zarur teatr bo'lishi kerak".² Bahodir Yo'ldoshev rejissyorlik qilgan Qarshi va Marg'ilon shaxarlarining 2700 yillik yubiley bayramiga, 2009 yilda "Sharq taronalari" Xalqaro musiqa festivaliga tayyorgarlik jarayonida men Bahodir Yo'ldoshevning "Diydor" teatr studiyasi ishtirokchisi sifatida uning rejissurasining o'ziga xos qirralini yoritishga qaror qildim. Mazkur tomosha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2004 yil 28 sentabrdagi "Qarshi shaxrining 2700 yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish to'g'risida"gi va O'zbekiston

¹ (Shuxrat Rizayev. O'zbekiston adabiyoti va san'ati gazetasi. 2006 yil 17 noyabr 46 son).

² (Shuxrat Rizayev. O'zbekiston adabiyoti va san'ati gazetasi. 2006 yil 17 noyabr 46 son).



Respublikasi birinchi Prezidentining 2005 yil 26 iyuldagagi “Qarshi shahrining 2700 yilligni nishonlashga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlariga binoan 2006 yil 27 oktabrdagi o’tkazildi.

Tomoshaga el ardog‘idagi xonandalar, taniqli san’atkorlar va yosh iste’dod sohiblari, Mudofaa Vazirligi qoshidagi san’atga ihtisoslashgan harbiy bo‘linma, poytaxtning professional raqs va estrada guruhlari, Qashqadaryo viloyatidagi Mullatto‘ychi Toshmuxamedov nomidagi musiqa va drama teatri, “Eski machit” va “Muloqot teatr”lari jamoalari, viloyat raqs dastalari, Qarshi shaxar madaniyat kolleji talabalari. Tumanlarda faoliyat yuritayotgan yarim professional, noprofessional folklor jamoalaridan tortib maxalalar qoshida tashkil etilgan kichik san’at to‘garaklari qatnashuvchilarigacha jalb etilgan edi.

Qarshi shahri markazidagi Alisher Navoiy istiroxat bog‘ida qad rostlagan amfiteatr sahnasi Baxodir Yo‘ldoshev chizmalariga asosan ko‘rib bitkazildi. Amfiteatrning sahnasi va sahna ortidagi xar bir yo‘lak u chizib bergen chizmalar asosida yotqizildi. Amfiteatr egallagan maydonning ort qismidagi bog‘, u yerda joylashgan sun’iy sharshara va tosh ariq amfitearga uyg‘unlashib ketganligi yaqqol ko‘rinib turardi. Repetitsiyalar davomida Bahodir Yo‘ldoshevning aynan shularga e’tibor bergenligi tomoshaning yanada ko‘rkam va o‘zgacha ko‘rinish olishiga sabab bo‘ldi. Rejissurada, ayniqsa maydon tomoshasida nafaqat maxorat balki tajriba juda katta rol o‘ynashi barchamizga ma’lum. Chunki yillar davomida bu sohada orttirilgan xar bir ilm rejissyor uchun juda muhim hisoblanadi. Ushbu tomoshani sahnalashtirishda Bahodir Yo‘ldoshevga yuqorida ta’kidlaganimdek tajriba ancha qo‘l keldi desam yanglishmayman. O‘scha butun dunyo sivilizatsiyasining beshigi bo‘lgan Afina, Rim yoki Samarcand hamda Buxoro singari Qarshi shaxrining ham jahon shaxarlari durdonasi ekanligi, ilm-fan, madaniyat o‘chog‘i bo‘lganligini bir yoki bir yarim soatlik tomosha ichida yoritishga maxoratning o‘zi kamlik qilishi tayin. Lekin bir necha yillardan beri xar xil elatlarning so‘nmas san’atini o‘zida aks ettirgan “Sharq taronalari” xalqaro festivalining rejissyori Bahodir Yo‘ldoshev uchun bu bayram tomoshasi yana bir maxorat maydoni bo‘ldi. Shundan kelib chiqib Bahodir Yo‘ldoshev Qashqadaryo viloyatiga xos bo‘lgan tarixiy an’analarni, urfodatlarni o‘zida jamlagan folklor jamoalarini bayram nomerlarining asosi sifatida qoldirdi.

Teatrlashtirilgan sahna ko‘rinishlarida Qarshi shaxrining tarixi o‘z ifodasini topdi, kuy va qo’shiqlarda tabbaruv tuproq, mustaqillik Vatanga muxabbat, baxtiqbol va istiqbol ijodkori bo‘lgan xalq madh etildi .



Yillar davomida oldiniga teatr sahnasida keyinchalik esa maydon tomoshalarida B.Yo'ldoshev tomonidan orttirilgan sahna tilini egallash malakasi yuqori darajada ekanligini yana bir bor ta'kidlash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shuxrat Rizayev. O'zbekiston adabiyoti va san'ati gazetasi. 2006 yil 17 noyabr 46 son
2. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
3. <https://daryo.uz/2021/12/07/>
4. <https://qalampir.uz/>